

ELEKTRON PLATFORMADA MASOFALI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Sherbekov Dilshod Karimberdiyevich

Guliston davlat universiteti "Ta'limda axborot texnologiyalari" yo'nalishi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7378463>

Annotatsiya. Maqolada ta'lim samaradorligini yaxshilashda prezidentimiz qarar va farmonlarining hamda hayot davomida o'qitish tamoyilining o'rni haqida so'z borgan. Yana "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi, o'qitish tamoyili, malaka oshirish.

ТЕХНОЛОГИИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ЭЛЕКТРОННОЙ ПЛАТФОРМЕ

Аннотация. В статье говорится о роли решений и указов нашего президента и принципа непрерывного обучения в повышении эффективности образования. Также представлена информация об электронной площадке «Непрерывное профессиональное образование».

Ключевые слова: электронная площадка «Непрерывное профессиональное образование», принцип обучения, повышение квалификации.

TECHNOLOGIES OF DISTANCE EDUCATION ON THE ELECTRONIC PLATFORM

Abstract. The article talks about the role of our president's decisions and decrees and the principle of lifelong learning in improving the effectiveness of education. Information about the "Continuous Vocational Education" electronic platform is also given.

Keywords: "Continuous professional education" electronic platform, teaching principle, professional development.

Prezidentimizning 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarorida xalq ta'limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Mazkur hujjatlarda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq masalalarga ham alohida e'tibor qaratilib, sohadagi rahbar va pedagog-xodimlarni "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimiga transformatsiya qilish vazifasi qo'yildi.

Bugungi kunda aloqa turi tubdan o'zgarib bormoqda: an'anaviy o'zaro ta'sirlar telekommunikatsiya vositalari bilan almashtiriladi, ular o'rganilayotgan materialning asosiy hajmini talabalarga etkazib beradi va o'quv jarayonida talabalar va o'qituvchilar o'rtasida interaktiv aloqani ta'minlaydi. Shunga qaramay, masofaviy texnologiyalar va metodlar faqatgina tegishli axborot va telekommunikatsiya infratuzilmasi mavjud bo'lganda, shuningdek ta'lim muassasalarida kompyuter o'qitish va uslubiy ta'minoti rivojlangan taqdiridagina o'zlarining mustaqil, o'ziga xos ta'lim shakllarini shakllantirishi mumkin. Shu sababli, masofaviy o'qitishning eng keng tarqalgan rivoji hozirgi kunda buning uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lgan mamlakatlar, ya'ni: telekommunikatsiya infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda samarali ishlamoqda. Hozirda aksariyat Amerika va Evropa universitetlari masofaviy ta'lim olish imkoniyatini taqdim etmoqdalar, bundan tashqari, keng ko'lamlil fanlar bo'yicha masofaviy qisqa

muddatli kurslar soni o'sib bormoqda. Qo'shma Shtatlarda har yili qariyb 2 million kishi onlayn tarzda oliy ma'lumot oladi. Shunga ko'ra, masofaviy o'qitish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot va tezkor rivojlanish mavjud. Dunyo bo'ylab masofaviy ta'lim bozorining o'rtacha o'sishi turli mamlakatlarda yiliga 10-20% ni tashkil qilib, 50 milliard dollarni tashkil etishini taxmin qilmoqda. AQSh Milliy Standartlar va Texnologiyalar Instituti ma'lumotlariga ko'ra, Amerika bu miqdorni allaqachon o'zlashtirgan. Jahon iqtisodiy inqirozi jamiyatning barcha asosiy sohalariga ta'sir qila boshlagan hozirgi paytda, Amerika va boshqa mamlakatlarda ta'lim ko'pchilik uchun mustaqil shaklga aylanib bormoqda.

Ta'limning ijtimoiy mazmuni aloqa texnologiyasining muhim elementidir. Asosan, ijtimoiy mavjudlik - bu kompyuter tomonidan o'rnatilgan aloqalarda shaxsni qabul qilish darajasi. Ijtimoiy hamkorlik o'quvchilarga o'z e'tiqodlarini sinash va himoya qilish imkoniyatlarini beradi, shu bilan birga boshqa o'quvchilarning imkoniyatlarini o'rganish orqali mavzu bo'yicha tushunchalarini kengaytiradi. Binobarin, ijtimoiy mavjudlik masofaviy ta'lim tizimlarining muvaffaqiyatini belgilaydi; - o'qituvchi (instruktor / t'yutor)masofaviy ta'lim tizimining samaradorligida asosiy rol o'ynaydi.

O'qituvchilarning texnik kompetentligi (instruktor / t'yutorlar) va ularning talabalarga bo'lgan munosabati masofaviy ta'lim muvaffaqiyatining hal qiluvchi omillari bo'lishi mumkin. O'qituvchining texnologiyaga bo'lgan ijobiy munosabati, o'qitishning interaktiv uslubi va ma'ruzalarni o'tkazishda texnologiyani nazorat qilish talabaning masofaviy kursni tanlash motivatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, o'qituvchining xususiyatlari asosan talabalarning masofaviy ta'lim tizimini qabul qilishini belgilaydi [5]. Kelajakda jahon ta'limi makonida masofadan o'qitishning rivojlanishi xohlagan inson dunyoning istalgan nuqtasida talab qilinadigan har qanday fan bo'yicha xohlagan ta'lim muassasasining ta'lim dasturini o'rganish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Ushbu yondashuv masofali o'qitish tobora ko'proq mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralishi bilan izohlanadi.

Masofaviy ta'limni keng joriy etilishidan iqtisodiy kutishlarning jiddiyligi, shuningdek, Novel, Microsoft, IBM, Apple, DEC, Sun va boshqai taniqli kompyuter kompaniyalari dunyodagi eng yirik ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etayotganligi ham shundan dalolat beradi. Pedagogik texnologiyalarni sifat menejmenti masalasiga kelsak, mahalliy ta'lim muassasalari tomonidan to'plangan xorijiy tajriba ko'rsatganidek, jarayon samaradorligini oshirish uchun kompyuter telekommunikatsiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, bu quyidagilarga imkon beradi: - har qanday vaqtda masofadan turib ma'lumotni qanday shaklda va hajmda tezkor uzatish; - interfaol va tezkor mulohazalarni amalga oshirish, ularsiz masofaviy ta'lim jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylantiriladi; - turli xil ma'lumot manbalariga kirishni ta'minlash; - turli mamlakatlarning ishlanmalarini o'z ichiga olgan qo'shma telekommunikatsion ta'lim loyihalarini tashkil etish; - har qanday tegishli mavzu bo'yicha ma'lumotni elektron konferentsiyalar orqali so'rab olish; - ta'lim muassasasida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar sifatini boshqarish samaradorligini aniqlash maqsadida nazorat tadbirlarini o'tkazish.

Uzluksiz malaka oshirish tizimini rivojlantirishda masofali ta'lim alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda masofaviy ta'lim eng ommabob ta'lim shakli bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda 30 yildan buyon foydalanib kelinmoqda va ta'limning barcha darajalarini o'zida mujassam etgan xalqaro ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Bilamizki, masofaviy

ta'lim boshqa o'qitish shakllarining eng yaxshi xususiyatlarini o'zida mujassam etgan integrallashgan ta'lim shakliga aylangan.

Ta'lim tizimida o'quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi informatsion texnologiyalarga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. Bunda masofaviy ta'lim tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

90 yillarning boshlarida Internetning keng ommalashishi, ayniqsa WWW (World Wide Web-Butun dunyo vrgimchaklari twri) tizimining joriy etilishi ta'lim tizimiga yangi «masofaviy ta'lim» yo'nalishini olib kirdi.

Masofaviy ta'lim (MT) - bu informatsion va kommunikatsion texnologiyalar - Elektron pochta, Internet, video konferentsiya, audio, video malumotlar va multimedia o'quv qo'llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o'qitish, o'rgatish usulidir. Masofaviy ta'limda talabadan doimiy faoliyat – interaktiv o'qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi va qobiliyatini sifat xarakteristikasini oshiradi.

Masofaviy ta'limning texnologiya elementlari hatto 20 yillardan beri kirib kelinadi. Bunga Rossiya tajribasidan misol qilib general A. M. Shanyavskiy nomidagi Moskva Xalq Universiteti, Naxotka shahridagi Morexodnaya maktablarini olish mumkin. Bu erda V. P. Chernov 1987 yili masofaviy o'qitishni joriy etgan.

MT - sirtqi ta'limning o'z rivojlanish yo'lidagi yangi kommunikatsion va informatsion texnologiyalarga tayangan, hamma formalari qonunlashtirilgan o'qitishni amalga oshirishdir. Shuning uchun MT formasi «XXI asr ta'limi» deb hisoblanmoqda.

Masofaviy ta'limni qo'llash usullari

Masofaviy ta'lim tizimini joriy qilishda 3 ta yo'nalishdagi muammo tug'iladi:

1. **Texnik:** Kompyuter va texnik qurilmalar bilan taminlash, aloqa kanallarini band qilish;
2. **Tashkilotchilik:** Yuqori malakali boshqaruvchi, o'qituvchilar, mutaxassislar bilan taminlash;
3. **Metodik:** Ko'rgazmali qurollar, maruza matni, multimedia, animatsiya, test malumotlar bilan ta'minlash.

Masofaviy ta'limni qo'llashning bir qator ustunlik va qulaylik tomonlari mavjud, jumladan:

- Ta'lim vaqti ixtiyoriy, talaba ixtiyoriy vaqtda o'qishi, o'rganishi mumkin;
- Mashg'ulotlarni auditoriyada o'tishi shart emas;
- Talabalarga mustaqil shug'ullanishni o'rgatadi;
- O'qituvchilardan yuqori tayyorgarlikni talab qiladi;
- Talabalar amaliy va sifatli bilim olishlari mumkin;
- Talabalarining mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi;
- Talabalarda texnik qurilmalar bilan, kompyuter, Internet, elektron pochta tizimlaridan foydalanish ko'nikmasi rivojlanadi;
- Ta'limga ketadigan mablag' arzon. Ayniqsa kam taminlangan oilalardagi iqtidorli yoshlarning bilim olishiga yangi sharoit paydo bo'ladi;
- Agar ta'lim olishga vaqti kam bo'lsa yoki yashash joyidan uzoqda bo'lsa, o'zi uchun qulay vaqtda ishdan ajralmagan holda ta'lim olishi mumkin;
- Ta'lim olish chegara tanlamaydi, yani talabalar boshqa joylarda - viloyatda turib bilim olishi mumkin.

Masofaviy ta'lim nafaqat ta'lim sohasida, balki kundalik turmushimizning barcha sohalarida ham qo'llash mumkin va yaxshi natijalarni beradi:

- ❖ Bank va moliya sohasida - turli malumot olish, almashish;
- ❖ Huquqni muhofaza qilish organlarida – tezda malumot almashish;
- ❖ Savdo-sotiq sohalorida;
- ❖ Bog‘cha-yasllarda qo‘llash;
- ❖ Transport tizimida foydalanish;
- ❖ Harbiy sohalarda qo‘llash;
- ❖ Meditsinada hamkorlikda ish olib borishda qo‘llash;
- ❖ Kutubxona tizimida foydalanish;
- ❖ Dam olishda va boshqa sohalarda foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Masofaviy ta‘lim jarayonida quyidagi o‘quv malumotlaridan foydalanish mumkin:

- ❖ Qo‘llanma (umumiy kurs);
- ❖ Audio va video malumotlar;
- ❖ Elektron va multimedia qo‘llanmalari;
- ❖ Elektron plakatlar;
- ❖ On-layn kurslari.

Masofaviy ta‘lim jarayonini,

- ❖ Internetning WWW , Elektron pochta va boshqa xizmatlari orqali;
- ❖ Video konferentsiyalar ko‘rinishida;
- ❖ Maxsus kabel studiyalari orqali, tashkil etish mumkin.

Bunda **Internet orqali** ixtiyoriy foydalanuvchi, boshqa mamlakatlardagi Virtual Universitetlar talabasi bwlilib ta‘lim olishi, ushbu Universitetlarning diplomiga ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek Internet orqali ixtiyoriy turdagi, ixtiyoriy hajmdagi malumotlar olishi, o‘rganishi, murojaat qilishi mumkin.

Video konferentsiyalar ham kompyuter, telefon aloqasi orqali amalga oshiriladi. Bunda bir shahardagi talaba boshqa bir shahardagi o‘qituvchi yoki talaba bilan jonli muloqat qilishi mumkin. Albatta buning uchun maxsus video va multimedia qurilmalari bilan birga, ularning kompyuterda maxsus programma taminoti ham zarur bo‘ladi.

Maxsus kabel studiyalari orqali ta‘lim olish jarayoni, xuddi kabel televideniyesi kabi tashkil etilgan bwladi. Wqituvchi biror joyda turib televizor orqali boshqa joydagi talabaga bilim berishi, o‘rgatishi mumkin.

Masofaviy ta‘lim ning asosiy elementlaridan biri Internet texnologiyalari orqali elektron qo‘llanmalarni ularda joylashtirish va ulardan foydalanishni tashkil qilish yoki har xil elektron qo‘llanmalarni tayyorlash va ularni CD lar orqali foydalanishni tashkil qilish hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki - masofaviy o‘qitish bugungi kunda nafaqat o‘quv maskanlari uchun zarur, balki bugungi kundagi globalizatsiyalash jarayonida katta-katta korxonalariga, muassasalarga o‘zlariga mutaxassislar tayyorlashda, ularni qayta tayyorlashda, ularning bilim darajalarini va ko‘nikmalarini yuqori darajada ushlab turishda muhim o‘rin tutadi. Masofaviy o‘qitishni qo‘llagan holda aholining umumiy bilim darajasini va bu bilimning sifatini oshirish imkoni mavjud. Aholining barcha qatlamlarini bilim olishdagi ixtiyoriy talablarini qondirish mumkin bo‘ladi. Bilimlarni o‘z vaqtida keng aholiga tarqatish imkoni mavjud. Yagona ta‘lim muhitini yaratib, unda barcha bilimlarni mujassamlashtirish imkoni mavjud.

REFERENCES

1. Akhmedov, B. A., Kuchkarov, Sh. F., (2020). CLUSTER METHODS OF LEARNING ENGLISH USING INFORMATION TECHNOLOGY. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(2), 40-43.
2. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 1(1), 252-256.
3. Саидов А., Джураев Р. Воспитание гармоничного поколения—роль спорта в формировании здорового образа жизни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.
4. Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family //International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – Т. 12. – №. 4. – С. 628-630.
5. Ismailovich A. S. PROBLEMS OF IMPROVING PSYCHOLOGY OF HEALTHY LIFESTYLE OF UZBEK FAMILY //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 313-318.
6. Ismoilovich, S. A. SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF THE FORMATION OF THE PSYCHOLOGY OF A HEALTHY LIFESTYLE OF FAMILIES.
7. Azamat, S. (2022). On The Basis Of National Values To Raise A Healthy Generation In The Family. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2417-2420.
8. Saidov A. SOCIAL PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF A CULTURE OF A HEALTHY LIFESTYLE